

MIRZO BOBUR DAVRIDA BOBURIYLAR IMPERIYASINING IQTISODIY-SIYOSIY TUZUMI

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti akademik litseyi Tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22744438>

Qabul qilindi: 6-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 13-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 14-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Maqolada Hindistondagi Boburiylar sulolasi va imperiyasi asoschisi, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hukmronligi davrida davlatning siyosiy va iqtisodiy hayoti, boshqaruv qanday yuritilganligi va bu borada Mirzo Boburning qarashlari hamda tutgan yo'llari borasida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar:

Boburiylar sulolasi, intimoy - iqtisodiy tuzum, Boburnomada siyosiy qarashlar, jug'rofiya, manbashunoslik, tilshunoslik, adolatli iqtisodiy siyosat.

Bobur o'z qisqa hayoti davomida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotning juda ko'p muammolariga echim topishga harakat qildi. Uning ilmiy dunyoqarashi mashhur «Boburnoma» asarida bayon etildi. Bu asar o'zining har jihatdan mukammalligi, turli sohalariga oid tadqiqotlarning mahsuli ekanligi, juda ko'p fanlarga oid bebaho materiallarga boyligi bilan ilmiy jamoatchilikning xayrat va taqsiniga sazovor bo'ldi, shu bilan birga tariximizni bilish, o'zligimizni anglash uchun bebaho manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Unda adabiyotshunoslik, manbashunoslik, jug'rofiya, tilshunoslikka oid hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid g'oyalar va qarashlar mujassamlashgan, bu asarni mutolaa qilar ekanmiz, undan mamlakatimizning bugungi hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish, ulardan xulosalar qilish va qilayotgan ishlarimizda foydalanish uchun fikrlar topamiz. Ayniqsa, iqtisodiyotga oid, uning umumiy asoslariga (ishlab chiqarish, uning insoniyat hayotidagi ahamiyati) oid, savdo va tijoratga borlik ilmiy qarashlar bizni to'liqlantiradi.

Garchi bizning qo'limizda Boburning davlatni boshqarish, ishlab chiqarish va savdoni tashkil etishga oid alohida asari yoki uning o'sha davrlarda yuritgan iqtisodiy siyosatiga doir manbalar bo'lmasa ham, ilmiy umumlashma kuchi bilan shunday xulosaga kelish mumkinki, u iqtisodiy munosabatlarning, iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, qonunlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur tushungan, yaxshi va adolatli qonunlar va farmonlar qabul qilgan, adolatli iqtisodiy siyosat yuritgan bo'lsa kerakki, uning davrida davlatda osoyishtalik, hamjihatlik, taraqqiyot qaror topgan, u asos solgan saltanat bir necha asr yashagan.

«Boburnoma» uzoq yillar «Buyuk ipak yo'li» buylab qilingan sayoxat va kuzatishlar tafsiri berilgan asardir. Bu yo'ldan qancha-qancha savdogarlar, tojirlar (tijoratchilar, do'kondorlar) o'z mollarini dunyoning turli mintakalari va mamlakatlariga etkazib berganlar. Ular o'z ishlari bilan savdo — iqtisodiy faoliyatnigina emas, ayni chog'da, xalqlar o'rtasida do'stlik, tinchlik va o'zaro manfaatdorlik rishtalarini ham bog'laganlar.

Ma'lumotlarga qaraganda, hatto urushlar, o'zaro kelishmovchiliklar xukm surayotgan davrlarda ham savdogar-tijoratchilarning mol-mulkini talash, bosqinchilik qilish, ziyon etkazish qattiq qoralangan. Agar moziyga nazar solinsa, o'sha davrlarda davlatlar, xonlar, podshoxlar urush-janjallari asosan qulay savdo yo'llari, bozorlari, dunyo bozorlariga chiqish maqsadlarida olib borilgan.

Buyuk Amir Temur va uning munosib vorisi bo'lgan Bobur ham mamlakatlar, xalqlar o'rtasida xalol savdo-sotiq hamkorlik, tinchlik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun kurashganlar. «Boburnoma»da asar muallifining o'zi tug'ilib o'sgan yurt, Vatani, uning tabiiy, iqtisodiy, ma'naviy resurslari, ajoyib mehnatkash, yaratuvchi xalqi to'g'risida to'lqinlanib yozgan satrlarini xayajonsiz o'qish qiyin. Mana uning jonajon Andijoni haqidagi fikri: «...Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshligi vofur, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bular. Kovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq, rasm emas...»

«Boburnoma»da bir yurt mollarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi extiyolarining qondirilishi va ularning ahamiyati maroq, bilan hikoya qilinadi. Bobur savdo-sotiqning xalqlar o'rtasidagi bebaho ahamiyatini juda chuqur tushunar edi.

Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo'llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkiga ziyon etkazish kabi salbiy illatlarga shaxsan o'zi ham katiy qarshi chiqadi. Bunga misol qilib quyidagi so'zlarni keltirish mumkin: «Kalotga etganda, qalin Hindiston savdogarikim, Kabotga savdo qilgali kelgan ekandurlar, qocha olmadilar, cherik eli alar ustiga — o'q etib bordi. Aksar birin bo'ldilarkim shundoq yog'iylik mahalida yog'iy viloyatiga kelatug'onlarni talamoq, kerak, men rozi bo'lmadim, savdogarlarning ne gunohi bor...».

O'zgalar mulkiga hiyonat qilmaslik, ularning mulkini muqaddas bilish, el-yurt farovonligi yo'lida tinib-tinchimay ishlayotgan odamlarni qadrlash, ularni himoya qilish kabi umumbashariy kadriyatlar Boburga bobosi Amir Temurdan meros bo'lib kelgan. Otasining ana shunday oliyjanob xislatini eslab quyidagilarni yozgan edi: «Adolatla shu martabada edikim,

Xitoy Karvoni kelaturg'onda, Andijonning sharqiy tarafidagi tog'larning tubida ming uylik karvonni qor bostikim, ikki kishi kuturdi. Xabar topib muxassillar yiborib, karvonning jami' jihatini zabt qildi. Har chandonkim, vorisi hozir yo'q edi, bovujudi ehtiyot saqlab, bir-ikki yildan so'ngra Samarqand va Xurosondan vorislarini tilab kelturib, mollarini solim topshirdi» (o'sha asar, 10-bet). Bobur tuzgan davlatning bir necha asrlar yashnab, ravnaq topib borgani, uning muborak nomi asrlar osha yashayotgani unda ijtimoiy adolat juda yuqori ekanligi tufayli hamdir.

Shuningdek, Bobur bizga qoldirgan ma'naviy va iqtisodiy tafakkur merosi, u yurgazgan iqtisodiy siyosat mustaqilligimiz uchun kurashimizda qudratli tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Albatta, Bobur iqtisodiy dunyoqarashini o'rganish, uning iqtisodiyotga oid qarashlarini tadqiq etish navbatdagi dolzarb vazifalardan biridir. Biz yuqorida keltirgan fikrlar ushbu ezgu ishdagi dastlabki harakat mahsulidir, holos.

«Kur'oni Karim» va islom shariati qoidalari asosida soliq haqida ta'limot— Islomdagi farzlardan biri — zakotdir, u soliq ma'nosida qo'llaniladi. Zakot pul va savdo yig'imi turlarida to'langan. Bobur g'oyat adolatli, insonparvar inson bo'lganligidan uning soliq haqidagi qarashlari ham umuminsoniyat qadriyatlarini aks ettirgan. U soliqni hisoblash uchun soliq mavzuining «hisobi»ni hisoblash, ya'ni mol-mulkning soliq solishga layoqatli miqdorini aniqlash zarur, deb bilgan. Soliq hosilga, ya'ni olinayotgan daromadga qarab belgilangan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mahmudjon Nuritdinov. Boburiylar sulolasi. - T.: "Fan" n, 1994 yil
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" n, 2000-2005 yil
3. G'ofurjon Sotimov. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. - T.: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2008 yil
4. N.G'.Nizomiddinov. Buyuk boburiylar tarixi. - T.: "Fan va texnologiya" n, 2012 yil